

SCIENTIFIC INTERPRETATION OF RAHIM AHMEDOV'S WORK IN PAINTING IN UZBEKISTAN

Sharipov Javlon Sharifjon ogli.

Namangan State University. 2nd year master of fine and applied arts

Introduction: The concept of fine arts must be mastered and shared with students and young people without lagging behind its contemporary examples. Naturally, solving this problem is a responsible task for pedagogy. In this regard, attention is paid to the problems and requirements of the pedagogy of fine arts, including the scientific study of the theoretical foundations of fine arts. The sense of consumption of art increases.

O'ZBEKISTON RANGTASVIR SAN'ATIDA IJOD QILGAN RAHIM AXMEDOV IJODINING ILMIY TALQINI.

Sharipov Javlon Sharifjon o'g'li.

Namangan davlat universiteti. Tasviriy va amaliy bezak sanati 2-kurs magistranti

Kirish: Tasviriy san'at tushunchasi uning zamonaviy namunalaridan orqada qolmasdan o'zlashtirmog'imiz, o'quvchi va yoshlarga ulashmog'imiz darkor. Tabiiyki, bu masalani yechish pedagogika fani uchun mas'uliyatli vazifadir. Shu nuqtai nazardan tasviriy san'at pedagogikasining oldiga qo'yilgan muammo va talablarni jumladan, tasviriy san'atning nazariy asoslarini ilmiy jihatdan imkon qadar o'rganishga e'tibor qaratilmoqda. Madaniyat taraqqiyoti natijasida xalqlar o'rtasidagi, ma'nnaviy aloqalar rivojlanib borar ekan, san'atga bo'lgan talab kundan-kunga oshib bormoqda. Ma'lumki, umumiyligi ma'nnaviyat oshgan sari san'atga bo'lgan istemol qilish hissi kuchayadi. Bu borada oddiy bir misol sifatida bozorlar va savdo do'konlardagi narsa va buyumlarni qanchalik rang-barang tasvirlar bilan bezatilishini bir ko'z oldimizga keltiraylik. Bularning hammasi tasviriy san'at vakillarining mehnat va ijodiy ishlari natijasidir. Haqiqatdan ham, rassomlar mehnatiga har kuni, har qadamda duch kelamiz. Ammo bu ijodkorlar faoliyatining ko'p jihatlari haqida deyarli ko'pchilik yaxshi bilmaydi. Shunday qilib, insonlarning kundalik turmush tarzida keng qo'llaniladigan barcha narsa va buyumlarning nafis va go'zal bo'lishiga odamlar qanchalik intilayotganligini o'zi bu mavzuning zaruriyatiga yetarli dalildir.

Asosiy qism: O'zbekiston xalq rassomi Rahim Ahmedov 1921 yilda Toshkentda tug'ilgan. 1937-1941 yillarda P. Benkov nomidagi Respublika badiiy o'quv yurtida, 1947-1953 yillarda Sankt-Peterburgdagi I.Repin nomidagi rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik institutida o'qidi. Taniqli musavvirlar Iskandar Ikromov, O'rol Tansiqboevlardan keyingi avlod vakili bo'lgan Rahim Ahmedov o'zbek tasviriy san'atiga 50-yillarning boshlarida kirib keldi. Ilk asarlarini institutda o'qib yurgan kezlaridayoq yaratdi. O'z ijodini portret janrida boshlagan rassom asarlarida oddiy dehqonlar, cho'ponlar, qishloq ayollari va atoqli san'at arboblarining qiyofalarini tasvirladi. «Cho'pon yigit», «Xalq bastakori — qo'shnaychi Ahmadjon Umrzoqov», «Surxondaryolik qiz» va boshqa asarlar rassom ijodining dastlabki namunalaridir. Bu tasvirlarda xalq hayoti va turmushining oniy lavhasi, ko'rinishi o'z ifodasini topgan. Rassomning 50-yillarda chizgan «Ona o'yłarı» asari chuqur psixologik ifodaliligi bilan tomoshabin diqqatini o'ziga jalb yetadi. Bu portretda ifodalangan onaning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari ishonarli ifodalangan. Rahim Ahmedovning 60-80-yillarda yaratgan asarlarining ham ko'pchilagini portretlar tashkil yetadiki, bular «Zveno boshlig'i», «Bahor ayyomida», «Furqat portreti», «Ayol portreti», «Bahor», «Rassom B. Boboev portreti», «Rassom Salimjonova portreti» kabi asarlardir. Shuningdek, «Birinchi maosh», «Tushki dam olish», «Tong, Onalik», «Qo'shiq» asarlarini ham shu yillarda yaratdiki, ularda xalqimizning hayoti, turmush tarzi, bepoyon mamlakatimizning go'zal tabiat manzaralari nihoyatda nafis, latofatli, yorqin bo'yoqlarda did bilan tasvirlangan.

R. Ahmedov yaratgan ayollar obrazlari, ayniqsa, jozibali va maftunkordir. Rassomning bu mavzudagi

suratlari nazm ruhi bilan sug'orilgan, nozik his-tuyg'ularga boy. «Onalik - tong» (1963) suratida rassom zamonaviy o'zbek ayolining tipik obrazini gavdalantirdi. Azaldan san'atkorlarni maftun yetib kelgan mavzuni R.Ahmedov sodda va bir vaqtida tantanali ifodalagan. Suratning kompozitsiyasi oddiy, koloriti jozibali va nafis. Suratning umumiyligi nozik pistoqi-yashil rangi, tog' cho'qqilari va adirlarning yashiltob binafsha ranglari hamda daraxtlarning ko'kish tuslari bilan uyg'unlashib ketgan. O'zbek ayollariga xos holatda o'tirgan onaning yegnidagi sariq libosi uning bug'doyrang badaniga uyg'unlashtirib tasvirlangan. Xamza mukofoti laureati, Toshkent teatr-rassomlik institutining akademigi R. Ahmedov respublika tasviriy san'atining atoqli namoyandalaridan biridir. Uning asarlari xalqaro ko'rgazmalarda namoyish qilingan, mamlakatimizning san'at muzeylari va galereyalarida saqlanmoqda. Hech bir sahna asarini bezaklarsiz, dekoratsiyasiz tasvvur qilib bo'lmaydi. Ular spektakldagi voqealarning tabiiy, ishonarli va hayotiy chiqishiga yordam beradi. Bunda teatr rassomlarining xizmati katta.

Xulosa: Respublikamizda ham bir qancha mahoratli mo'yqalam ustalari shu borada mehnat qilmoqdalar. Ular yaratgan sahna bezaklari asosida tomoshabinlarga tuhfa yetilgan o'nlab spektakllar o'zbek madaniyatiga sezilarli hissa bo'lib qo'shilmoqda. Akademik R.Ahmedov o'z portretlarida yepik kenglik va teranlikka yerishadi. Uning qaxramonlari oddiy insonlar, kishloq kishilari bo'lib, aynan, ularda musavvir donishman-likni, ma'naviy poklikni, yuksak axloqiy qoidalarni gavdalantiradi ("Jizzaxlik ayol", 1992; "Nigina" 1993).

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalq bilan birga quramiz-T.—O'zbekiston, 2017 yil
2. Beschastnov N.P. Syujetnaya grafika M.: Vlados 2012.
3. Lushnikov B.V., Persov V.V. Risnok. Izobrazitelno-vqratzitelnye sredstva. Vlados 2006.
4. Omelyanenko Ye.V. Svetovedenie i koloristika Rostov-na-Donu: Izd-vo YuFU 2010
5. Xorijiy adabiyotlar.